

**BUGUNGI KUNDA YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK  
RUHIDA TARBIYALASH**

*Mamajonov Firuzbek Baxrom o'g'li  
Komilov Sanjarbek Olimjon o'g'li  
Xursanov Dostonbek Qurbonboy o'g'li  
Farg'ona davlat universiteti  
harbiy ta'lim fakulteti talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mazkur g'oyaning asosiy mazmun va mohiyati o'sib kelayotgan avlodda buyuk tariximiz, azaliy qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish, milliy ruh va g'ururni yuksaltirish, bebaho boylik — tinchlik va osoyishtalikni asrash va himoya qilish zarurligi kabi fazilatlarni shakllantirish, zarurat bo'lganda, mamlakat suverenitetini himoya qilishga tayyor turish kerakligi haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi, Harbiy-vatanparvarlik, Vatan, Mamlakat, Yoshlar, Fuqarolar, Burch, Xalq, Yoshlar, Davlat, Jasorat.

**Annotation:** This article describes the main content and essence of this idea as the need to form in the growing generation such qualities as respect and reverence for our great history and ancient values, the need to raise the national spirit and pride, the need to preserve and protect the invaluable wealth - peace and tranquility, and, if necessary, to be ready to defend the country's sovereignty.

**Keywords:** Republic of Uzbekistan, Military-Patriotism, Homeland, Country, Youth, Citizens, Duty, People, Youth, State, Courage.

**Kirish**

“Vatan”, “Vatanparvarlik” deganda biz nimani tushunamiz? “Vatan” bu ming yillar mobaynida sayqallanib, kishilar ruhiga ilhom beruvchi, mard o'g'lonlarni jasoratga, kerak bo'lsa ona-zamin uchun jonlarni fido etishga undovchi muqaddas bir tuyg'udir. “Vatan” bu bizning oila, uyimiz, yashab turgan mahallamiz, qishlog'u shahrimiz va, albatta, bu Ona O'zbekistonimizdir. Shu o'rinda, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 3-sessiyasida so'zlagan nutqidan quyidagi so'zlarni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir: “Odamlarimiz, jamiyatimiz mafkurasida Vatan, yurt g'oyasi ustuvor bo'lmog'i kerak. Milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak”. Bu muqaddas g'oyalar, millati va etiqodidan qati nazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog'i, har birimiz uchun eng katta tayanchga, eng katta ishonchga, boringki, haqiqiy iymonga aylanishi kerak». Istiqlolni himoyalash, uni qadrlash, ulug'lash va unga xizmat qilish milliy ongimizga,

aqidamizga aylansagina, bizni tanlagan yo'limizdan hech qanday kuch qaytarolmaydi, qaddimizni bukolmaydi. Bu buyuk g'oyalar har birimizning qonimizga, qalbimizga singib, kelajak avlodlarga muqaddas boylik -muqaddas meros bo'lib o'tishi kerak. Bunday g'oyalar bizlarga "Vatanparvarlik" so'zi qanday mazmunga, mohiyatga ega ekanligini, "Vatanparvar" qanday bo'lishi kerakligini to'la-to'kis ochib beradi. Biz "Vatanparvar", "Millatsevar" degan so'zlarni eshitganimizda beixtiyor ko'z oldimizda buyuk ajdodlarimiz bo'lmish Shiroq, To'maris, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi va buyuk sohibqiron Amir Temur qiyofalari gavdalanadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya — bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.

2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#), O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi [Qonuni](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari asosida ishlab chiqilgan hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Har qanday og'ir va murakkab vaziyatda Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalarni, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali vatanparvar, sadoqatli hamda shijoatli yoshlarni kamol toptirish Konsepsiyaning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda "Vatan — ulug', burch muqaddas!" konseptual g'oya ostida tashkil etilib, unda yoshlarni vatanparvarlik

ruhida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxsni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasini, uning hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchidir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga, shuningdek, o'z mulkidagi binolar, inshootlar, transport va aloqa vositalari hamda boshqa mol-mulkklarini urush davrida mudofaa ehtiyojlari uchun qonunda belgilangan tartibda berib turishga majburdirlar, qilingan xarajatlarning o'zni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan [tartibda](#) keyinchalik qo'lanadi.

Fuqarolar mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga ko'maklashuvchi jamoat birlashmalari tuzish huquqiga ega.

Mudofaa to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Jamiyat rivojlangani sari katta ahamiyat kasb etadigan ma'naviy qadriyatlardan biri-vatanparvarlik tuyg'usidir. Vatanparvarlik ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdirga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoiylik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqga bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin oladi, faoliyatiga ta'sir etadi.

Harbiy–Vatanparvarlik, bu Vatanga muhabbatdir. Muhabbatsiz yurakka esa, Vatan sig'maydi. Vatan dardi, Vatan muhabbati bilan yashagan yurakgina insoniyatni sevadi, insoniyat uchun ko'yinadi. Vatanparvarlik—bu Vatan ozodligi, ota-ona, elyurt, jigargo'shalar tinchligini saqlash, himoya qilish uchun jismoniy va ma'naviy tayyor bo'lish, harbiy vatanparvarlik sir-asrorlari bilan puxta qurollanish, bu iroda muayyan bilimga ega bo'lishdir.

Har qanday dushmandan o'z yurtini himoya etish, millat, xalq, Vatan ozodligi, el-yurt tinchligi yo'lida kerak bo'lsa jonini ham fido etishdir. Vatanparvarlik esa jumlai jahondagi barcha xalqlarning donishmand va solih farzandlariga xos tuyg'udir. Ma'lumki, har bir davr va avlod hayotda o'ziga xos ma'naviy meros yaratadi. Ma'naviy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday bo'ladi. Ma'naviy meros muallifi xalq ommasi hisoblanadi.

*“Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak.”*

SH. MIRZIYOYEV

Ma'lumki, vatan ozodligi uchun jonini ham, molini ham fido aylash, mardlik, jasoratlik va jangovorlikni namoyish etish, har bir kishining or-nomusi va muqaddas

burchidir. Shu bois “Vatanni sevish iymondandir”, degan ibora bejiz aytilmagan. Bizning ota-bobo va ajdodlarimiz bu naqlni yuragiga tukkan holda, vatanga sodiqlikni, mardlik, jasoratlik va jangovarlikni namoyish etib kelmoqda.

Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko'rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi xislatlarni, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga singdirish, yoshlarda yon-atrofigimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish lozim.

Hududlarda harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda “Jasorat maktabi” nomli harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'inlarini o'tkazish orqali yoshlar ongida milliy armiyamizga bo'lgan ishonch va hurmatni yanada oshirish, harbiy xizmatni o'tash O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligi haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qitilishining sifatini oshirish, o'quv-moddiy bazani mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratish hamda shu orqali o'quvchi yoshlarda harbiy xizmat, uni o'tashning huquqiy asoslariga oid bilimlar va boshlang'ich harbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, harbiy vatanparvarlikning asosi hisoblanadi.

Ushbu maqoladan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Vatanimiz manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ommasiga keng yetkazish, yoshlarda ajdodlarimiz va ota-bobolarimizning Vatanni himoya qilishga oid an'ana va qadriyatlariga sadoqatli bo'lish xususiyatlarini shakllantirish, Vatanni himoya qilish, uni asrash to'g'risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo'yicha shaxsiy e'tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma'naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi qonuni.
3. HARBIY PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA ASOSLARI fanidan DARSLIK. 2021y /213b
4. HARBIY TARIX FANIDAN Oliy ta'lim muassasasidagi harbiy ta'lim fakultetlari va o'rta ta'lim muassasalari uchun DARSLIK. S.MAMAJONOV 2021y.
5. «HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI ASOSLARI» fanidan O'QUV QO'LLANMA. I.Saidov, SH.Tilavoldiev, X.Xaydaraliev.2021y